

Shodiyeva Mehribon Faxriddin qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti Pedagogika kafedrasini o‘qituvchisi

O‘ZBEK TILIDAGI FARMOYISH HUJJATLARINING AYRIM MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada rasmiy uslub haqida, farmoyish hujjatlari, ularning lingvistik jihatlari haqida, o‘zbek tilidagi farmoyish hujjatlarining morfologik xususiyatlari yuzasidan qisqacha malumot beriladi.

Kalit so‘zlar: rasmiy uslub, farmoyish hujjatlari, buyruq, buyruqdan ko‘chirma, farmoyish, ko‘rsatma, harakat nomi shakllari.

Bilamizki, rasmiy uslubdan hayotimizning har jabhasida foydalanamiz. Negaki ushbu uslub bevosita hujjatlar, ish qog‘ozlari bilan uzviy bog‘liqdir. Demak, har bir inson o‘z faoliyati davomida, albatta, biror bir hujjattan foydalanadi. Buning uchun hujjatlar yozish usulini bilish darkor. Har bir hujjatning esa o‘z qolipi mavjud. Shu asosda har bitta hujjat bir-biridan farq qiladi.

Rasmiy uslubda bir qator hujjat turlari borki, ular orasida farmoyish hujjatlari yozilish uslubi, qoliplari bilan boshqa hujjat turlaridan farq qiladi. Umuman olganda, ma’lumot-axborot hujjatlari ham, tashkiliy hujjatlarning ham o‘ziga xos yozilish qoliplari bo‘lib, ular ham o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Farmoyish hujjatlari tarkibiga kiruvchi buyruq, ko‘rsatma, farmoyish hamda qarorning bir qator jihatlari mavjud bo‘lib ularning morfologik xususiyatlarini misollar asosida ko‘rib chiqamiz.

1. Hujjatlar matnida kichraytirish-erkalash, gumon-tahmin, chama ma‘nosini ifodalovchi morfemalar qo‘llanilmaydi. Bu ham barcha rasmiy ish hujjatlarida aniqlikning birinchi o‘rinda turishini ko‘rsatib beradi, ya’ni hech qanaqa jozibadorlik va mujmallikka, mavhumlikka yo‘l qo‘yilmaydi. Hujjatlar matnida so‘z turkumlarining barchasi ishtirot etadi. Ayniqsa ot so‘z turkumi hamda fe’lning ishlatalish ko‘lami kengdir. Ko‘rishimiz mumkinki, hujjat matnlarida murakkab konstruksiyali otlar juda ham faoldir. Bundan tashqari, harakat nomi shaklidagi so‘zlar (tashkil etish, tayyorlash, tasdiqlash, qo‘llash, amalga oshirish) dan keng qo‘llaniladi. Ma’lumki, fe’lning harakat nomi shakllari -(i)sh, -(u)v, -moq qo‘shimchalari orqali hosil qilinadi. Ushbu shakllarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Ish qog‘ozlari matnida harakat nomini hosil qiluvchi morfemalarning qo‘llanilish darajasini bir xil deb bo‘lmaydi. -(i)sh qo‘shimchasi bilan yasalgan harakat nomi shakllari har bir ish qog‘ozida uchraydi. Farmoyish hujjatlari matnida ham bunga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ularni misollar asosida tahlil qilamiz:

Buyruqda:

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Konsullik ustavini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagli PF-5505-son “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 24-dekabrdagi PQ-2095-son “O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq buyuraman... O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagli PF-6044-

son “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq buyuraman...

Qarorda:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunining 9-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati qaror qiladi:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Farmoyishda:

2021-yil 13-mart kuni “Obod va ko‘rkam mahallam” obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish umumxalq xayriya hasharini (keyingi o‘rinlarda – umumxalq hashari) o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruh tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ba’zan hujjatlar matnida ishtirok etgan harakat nomi shaklidagi so‘zlar orqali berilgan topshiriqlar birma-bir sanab o‘tiladi. Va ularni yanada ko‘proq davom ettirish mumkin.

Mahallamga 30 tup daraxt mening tuhfam” shiori ostida barcha turar joy mavzelari va mahallalarda gul ko‘chatlari, mevali va manzarali daraxtlar ekish, daraxtlarni oqlash va butash;

ijtimoiy himoyaga muhtoj keksalar, pensionyerlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar, yolg‘iz qariyalar, kam ta’minlangan, boquvchisini yo‘qotgan oilalarning uy-joy sharoitlarini yaxshilashga ko‘maklashish;

joylarda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari o‘tkazilishi jarayonida to‘plangan chiqindilarning mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa mutasaddi idoralar tomonidan alohida belgilangan joylarga olib chiqilishini ta’minalash...

Mijoz bilan kelishuvga asosan, tijorat banki o‘z xodimini mijozning korxonasiga quyidagi masalalar bo‘yicha yuborishi mumkin:

buxgalteriya hisobini olib borilishi va hisobotning tuzilishini o‘rganish;

moliyaviy majburiyatlarning bajarilish tartibi va pul mablag‘lari harakatining prognozini tuzish;

moliyaviy rejalashtirish tahlili;

smeta tuzish;

tovar zaxiralarini boshqarish; ...

Hujjatlar matnida -ga muvofiq, -ga ko‘ra, -ga asosan birikmalari ham faol qo‘llaniladi.. Hujjat matnida -ga muvofiq, -ga ko‘ra birikmalarining bo‘lishi o‘ziga xoslikni tashkil etadi. -ga muvofiq, -ga ko‘ra ko‘makchilari sabab, asos munosabatini bildiradi.

Buyruqda:

O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-apreldagi 336сон “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga muvofiq buyuraman:

Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2000-yil 14-dekabrdagi 635-son «Dorixona va tibbiyat muassasalarida tramadol dori vositasini saqlash, hisobini olib borish va berish qoidalari to‘g‘risida»gi buyrug‘iga (ro‘yxat raqami 996, 2000 yil 29 dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralarining me’yoriy hujjatlari axborotnomasi, 2000-y., 24-son) ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

Farmoyishda:

Investitsiya shartnomasiga muvofiq “Serba Dinamik International Limited” kompaniyasi kuyidagi investitsiya va ijtimoiy majburiyatlarni o‘z zimmasiga olganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin...

Umumxalq xayriya hashari munosabati bilan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarda mehnat qilayotgan xodimlarning ixtiyoriy mablag‘lari O‘zbekiston “Mahalla” xayriya jamoat fondining respublika boshqaruvi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo‘limi, tuman va shahar bo‘lmalari boshqaruvlarining bankdagi hisob raqamlariga o‘z tashabbusiga ko‘ra o‘tkazilishi belgilab qo‘ylisin.

Qarorda:

Qonunchilikka o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritilganligi, shuningdek, sud amaliyotida masalalar kelib chiqqanligi munosabati bilan, “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 17-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qaror qiladi: ...

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunining 9-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati qaror qiladi: ...

3. Farmoyish hujjatlari matnida fe’l shakllarining ham qo‘llanilishi o‘ziga xosdir. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, hujjatlar matnida buyurish ohangidagi fe’llardan foydalaniladi. Buyruqda “buyuraman”, farmoyish, ko‘rsatma, qarorda ‘tavsiya etaman, qaror qila/di/man/dilar, tasdiqlansin, bajarilsin, yuklansin, kiritsin, o‘tkazilsin” va hokazolar. Hujjatlar tarkibida uchraydigan yuqoridagi fe’llar majhul yoki ortirma nisbat, bo‘lishli, kelasi zamon, buyruq maylida ifodalangan bo‘lib, ularni quyidagi misollar asosida ko‘rib o‘tamiz:

Buyruqda:

1. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2010-yil 22-dekabrdagi 308-mh-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2170, 2010-yil 22-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 51-son, 503-modda) bilan tasdiqlangan Davlat notarial idoralarida notarial ish yuritish qoidalariiga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin (kir/it/il/sin).

2. Mazkur buyruq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsin (o‘t/kaz/il/sin) va bu haqda Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish boshqarmasi Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning davlat reyestriga tegishli yozuv kiritsin (kir/it/sin).

Farmoyishda:

Norvegiya Qirolligi delegatsiyasi 2019-yil 4-5-noyabrida O‘zbekiston Respublikasida qabul qilinsin (qil/in/sin) va 1-ilovaga muvofiq tashrif dasturi tasdiqlansin (tasdiqla/n/sin).

2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xarajatlarni qoplash uchun Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasidan 2-ilovaga muvofiq mablag‘lar ajratsin (ajra/t/sin).

Yuqorida tahlil qilingan misollar orqali ko‘rishimiz mumkinki, fe‘llar tarkibida nisbat qo‘sishchasi, buyruq mayli, zamon shakllari bir xil tarzda qo‘shiladi. Ularni ushbu hujjatlar turida doimo, bir xil shaklda ishtirok etganligi uchun “qoliplashgan fe‘l shakllari” sifatida atash mumkin.

4. Hujjatlar tilida son so‘z turkumi ham faol qo‘llaniladi, hujjat chiqqan yil, hujjat raqami, bajarilish muddati va boshqalar shular jumlasidandir. Masalan, buyruqda:

[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 28-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2781-1]

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq buyuraman:

1. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirining 2016-yil 31-martdagi 3-mh-son “Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining metodik kengashi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘iga (ro‘yxat raqami 2781, 2016-yil 3-may) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 18-son, 205-modda) ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Vazir B. SAIDOV

Toshkent sh.,

2021-yil 17-dekabr,

35-mh-son.

Farmoyishda:

Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining Bosh kotibi Enzo Kvatrachoke boshchiligidagi delegatsiya 2019-yil 3-6-dekabr kunlari O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgani ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasidan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga ilovaga muvofiq zarur mablag‘lar ajratilishini ta’minlasin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,

2020-yil 19-may,

255-F-son.

Qarorda:

2019-yil 25-yanvarda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2018-yildagi faoliyati to‘g‘risida”gi 2303-III-sonli;

2019-yil 25-yanvarda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2019-yilga mo‘ljallangan faoliyatining asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi 2304-III-sonli qarorlari tasdiqlansin.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi. Toshkent sh.,

2019-yil 6-fevral,

2341-III-son.

Hujjat chiqqan, kuchga kirgan sananing bo‘lishi juda muhim hisoblanadi. Ularsiz har qanday hujjat yaroqsiz va ishonchsiz hisoblanadi. Shuning uchun har bir ish qog‘ozida, albatta, ular ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Farmoyish hujjatlari sarlavha qismi -i)sh to‘g‘risida, -(i)sh haqida birikmalari bilan tugaydi.

Buyruqda:

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLARINI TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATIDA TURGAN JOYI BO‘YICHA HISOBGA OLISH TARTIBI TO‘G‘RISIDA YO‘RIQNOMANI TASDIQLASH HAQIDAGI BUYRUG‘I, SHUNINGDEK UNGA O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALARNI O‘Z KUCHINI YO‘QOTGAN DEB TOPISH TO‘G‘RISIDA...

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIK TARMOQLARINING UMUMHUQUQIY KLASSIFIKATORINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA”GI BUYRUQQA O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA..

Farmoyishda:

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMOYISHI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDA DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI, SUD-HUQUQ TIZIMINING QONUNCHILIK ASOSLARINI ISLOH QILISH BO‘YICHA KENGASH TUZISH TO‘G‘RISIDA” 2004 YIL 13 MARTDAGI F-1924-SONLI FARMOYISHIGA O‘ZGARTISHLAR KIRITISH TO‘G‘RISIDA...O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMOYISHI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORLARI VA FARMOYISHLARINI TAYYORLASH, KO‘RIB CHIQISH VA IMZOLASH TARTIBI TO‘G‘RISIDA...

Qarorda:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI KENGASHINING QARORINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA...

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI PLENUMI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY XO'JALIK SUDI PLENUMINING QO'SHMA QARORLARIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA...

Ko'rsatmada:

XIZMAT QATNOVLARI UCHUN SHAHAR TRANSPORTIDA OYLIK YO'L CHIPTALARIDAN FOYDALANUVCHI XODIMLARGA SOLIQ SOLISH TARTIBI TO'G'RISIDA...

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA YUZAGA KELADIGAN HUJJATLARINI SAQLASH MUDDATLARI RO'YXATINI QO'LLASH BO'YICHA...

Harakat nomlarining haqida, to'g'risida, xususida ko'makchilari bilan hosil qiluvchi birliklari hujjatchilikda juda keng qo'llaniladi. bunday ko'makchilarni tadqiq qilgan ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, xususida ko'makchisining "obyekt" va "sabab" ma'nosi, to'g'risida ko'makchisining "obyekt", "sabab", "maqsad" ma'nolarini ifodalashi, haqida ko'makchisining ish-harakatning ijro etilishidagi "manba", "asos", "atalganlik" ma'nosini ifodalarydi¹.

Yana boshqa bir olimlarning fikricha, ushbu ko'makchilar yuqorida aytigan ma'nolarni ifodalashi mumkin emas. Umuman, haqida, to'g'risida, xususida ko'makchili analitik shakllarning boshqa so'zlarga birikishidan hosil bo'ladigan tuzilmalarda voqelanadigan ma'no munosabatining mohiyati shundan iboratki, ularda analitik shakl bog'langan so'z bildirgan ish, harakat, hodisa va shu kabilarning analitik shakl asosi bildirgan shaxs, narsa, harakat, holatga oidligi, tegishli bo'lishidir².

O'zbek tili hujjatchiligidagi keng qo'llanuvchi matn sarlavhasini ifodalovchi "harakat nomi + haqida", "harakat nomi + to'g'risida", "harakat nomi + xususida" shaklidagi qolip vujudga keldi. Matn sarlavhasi ko'pchilik hujjatlarning zaruriy qismi, ya'ni rekvizitlaridan hisoblanadi. Kadrlarning shaxsiy tarkibiga oid buyruq sarlavhalarida: "Ishga qabul qilish haqida", "Ishdan bo'shatish haqida", "Boshqa ishga qabul qilish haqida", "Rag'batlantirish haqida" kabi lisoniy qoliqlar qo'llanilmoqda³. Bundan tashqari, oliy davlat tashkilotlari, vazirliklar, hokimliklarning farmoyish hujjatlari sarlavha qismida ham ushbu qoliqlar o'ziga xos tarzda mavjud bo'ladi. Jumladan, "O'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida", "O'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" va shu kabi mazmundagi qoliqlar hujjatlarning sarlavha qismini tashkil etadi.

Umuman olganda, hujjatlar matnida kichraytirish-erkalash, gumon-tahmin, chama ma'nosini ifodalovchi morfemalar qo'llanilmaydi. Bu ham barcha rasmiy ish hujjatlarida aniqlikning birinchi o'rinda turishini ko'rsatib beradi, ya'ni hech qanaqa jozibadorlik va mujmallikka, mavhumlikka yo'l qo'yilmaydi. Hujjatlar matnida so'z turkumlarining barchasi ishtiroy etadi.

¹ Rustamov T. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'makchilar. Toshkent, 1965. 73-bet.

² Jumayev F. "Oidlik" ma'nosini ifodalovchi analitik shakllar. O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari, Toshkent. 99-bet.

³ Mo'minova B. Rasmiy ish qog'ozlarida lisoniy qoliqlar. O'zbek tili va adabiyot jurnali, Toshkent.

Ayniqsa ot so‘z turkumi hamda fe'lning ishlatilish ko‘lami kengdir. Ko‘rishimiz mumkinki, hujjat matnlarida murakkab konstruksiyali otlar juda ham faoldir. Bundan tashqari, harakat nomi shaklidagi so‘zlar (tashkil etish, tayyorlash, tasdiqlash, qo‘llash, amalga oshirish) dan keng qo‘llaniladi. Ma’lumki, fe'lning harakat nomi shakllari -(i)sh, -(u)v, -moq qo‘sishchalarini orqali hosil qilinadi. Ushbu shakllarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Ish qog‘ozlari matnida harakat nomini hosil qiluvchi morfemalarning qo‘llanilish darajasini bir xil deb bo‘lmaydi. -(i)sh qo‘sishchasi bilan yasalgan harakat nomi shakllari har bir ish qog‘ozida uchraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. – Toshkent – “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2020.
2. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi. 1983.
3. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – Toshkent. O‘qituvchi. 1985.
4. Hakimova O. Mantiq va nutq madaniyati. – Toshkent. Xalq merosi. 2002.
5. Xalilova M. O‘zbek tili stilistikasi asoslari. Farg‘ona. 2009.
6. Keldiyorova G., Ablayeva N. O‘zbek tilida ish yuritish. Toshkent. 2009.
7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent. 2009.
7. Головач А.С. Оформление документов. Киев – Донецк, 1983.
8. Shodiyeva M, O‘zbek tilidagi farmoyish hujjalarning til xususiyatlari. Magist. dissertatsiyasi. – Toshkent. 2022.
9. LEX.UZ – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlar milliy bazasi.
10. Wikopediya.uz.
11. Savodxon.uz.